


"APPROVED BY"
Decision of
Supervisory Board Meeting
5 on October 31, 2025



Seo, In Won
Chairman of Supervisory Board


"TASDIQLANGAN"
Bank Kuzatuv kengashining
2025-yil 31-oktabrdagi
5-sonli majlisi
Bayonnomasiga muvofiq



KDB Bank Uzbekistan

CORPORATE GOVERNANCE POLICY
/
KORPORATIV BOSHQARUV SIYOSATI

Tashkent 2025 / Toshkent 2025

I. ABBREVIATIONS / QISQARTMALAR:		
Bank / Bank	"KDB Bank Uzbekistan" JSC / "KDB Bank O'zbekiston" AJ	
CBU / O'zRMB	Central Bank of Uzbekistan / O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	
GMS / AUY	General Meeting of Shareholders / Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi	
SB / KK	Supervisory Board / Kuzatuv kengashi	
Board / Boshqarma	Management Board / Boshqarma	
II. DOCUMENT IDENTIFICATION / HUJJAT IDENTIFIKATSIYASI:		
Document owner / Hujjat egasi:	Legal Department / Yuridik boshqarma	
Document author / Hujjat muallifi:	Sanjar Rasulov / Sanjar Rasulov Senior Legal Adviser / Bosh yurist	
Document author signature / Hujjat muallifi imzosi:		
Business Location / Manzil:	3, Bukhoro Stn, 100047, Tashkent, Legal Department / 3, Buxoro ko'chasi, 100047, Toshkent, Yuridik boshqarma	
Document status / Hujjat maqomi:	Final approved version / Tasdiqlangan nusxa	
Document classification / Hujjat tasnifi:	Company Confidential, Wide internal usage / Bank siri, xizmat doirasida foydalanish uchun	
Document Directory path / Hujjat joylashishi:	KDB Intranet ⇒ Library ⇒ Main Internal Rules	
III. ASSOCIATED INTERNAL POLICIES AND EXTERNAL REGULATIONS / TEGISHLI ICHKI QOIDALAR VA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR:		
Law "On Banks and Banking" (new edition) / "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri);		
Law "On the Central Bank of the Republic Uzbekistan" (new edition) / "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri);		
Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 24, 2015 No. UP-4720 "On measures to introduce modern methods of corporate governance in joint-stock companies". / Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni # PF 4720, sana: 24.04.2015;		
Regulation registered at the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan with #3254 dd. 30.08.2020 "On corporate governance in commercial banks" / O'zR Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3254-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizom.		
IV. REVISION HISTORY OF DOCUMENT VERSION / HUJJATNING TAHRIRI		
Version / Tahrir	Preparation date / Tayyorlangan sana	Summary of Key changes / Asosiy o'zgartirishlar
LD/2.0.-2020	06.03.2020	New Policy / Yangi siyosat
LD/2.1.-2020	09.12.2020	Updated: - associated internal policies and

		<p>external regulations</p> <ul style="list-style-type: none"> - corporate governance system of the Bank - Supervisory Board of the Bank - internal control bodies of the Bank corporate governance - ensuring transparency of banking activity and information disclosure - final provisions
LD/2.2.-2025	31.10.2025	<p>Updated:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Full Policy text should be transliterated from Uzbek Kirill into Uzbek Latin alphabet; - clause 4.4 has been updated. <p>Quyidagi o'zgartish kiritildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Siyosatning matni lotin alifbosiga o'tkazildi; - Siyosatning 4.4-bandiga o'zgartish kiritildi.

Table of Contents

1. General provisions.....	5
1. Umumiy qoidalar	5
2. Corporate governance system of the bank.....	6
2. Bankning korporativ boshqaruv tizimi.....	6
3. General meeting of shareholders of the bank.....	6
3. Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi.....	6
4. Supervisory board of the bank.....	7
4. Bankning kuzatuv kengashi	7
5. Management board	11
5. Bank boshqaruvi	11
6. Internal control bodies of the bank corporate governance.....	13
6. Bank korporativ boshqaruvining ichki nazorat organlari.....	13
7. Ensuring transparency of banking activity and information disclosure	20
7. Bank faoliyati ochiqligini ta’minlash va axborotni oshkor qilish	20
8. Internal rules of the bank defining the corporate governance system	24
8. Korporativ boshqaruv tizimini belgilaydigan bankning ichki qoidalari.....	24
9. Final provisions	24
9. Yakuniy qoidalar	24

1. General provisions

1.1. The present Corporate Governance Policy is designed to improve the effectiveness of corporate governance in the joint-stock company «KDB Bank Uzbekistan».

1.2. This Policy is developed in compliance with the current laws, including the new editions of Laws "On Banks and Banking Activity", "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" and the Charter of JSC «KDB Bank Uzbekistan».

1.3. Basic concepts:

Bank - "KDB Bank Uzbekistan" Joint-Stock Company;

General Meeting of Shareholders of the Bank - the supreme governing body of the Bank, which takes decision on the main issues of the Banking activity in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" and the Charter of the Bank;

Supervisory Board of the Bank - governing body carrying out overall management of the Bank's activities, except for issues related to the competence of the General Meeting of Shareholders by the current legislation and the Charter of the Bank;

Management Board - collegial executive body of the Bank, which carries out operational management of its daily activities;

Officials of the Bank - members of the Supervisory Board and the Management Board;

Bank employees - citizens of the Republic of Uzbekistan, who entered into labor relations with the Bank (concluded labor contract), as well as foreign citizens and stateless persons.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Korporativ boshqaruv siyosati «KDB Bank O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Siyosat amaldagi qonun hujjatlari, jumladan yangi tahrirdagi "Banklar va Bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlari hamda "KDB Bank O'zbekiston" AJ Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Asosiy tushunchalar:

Bank – "KDB Bank O'zbekiston" aksiyadorlik jamiyati;

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi – O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va Bank ustaviga muvofiq Bank faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladigan Bankning yuqori boshqaruv organidir;

Bank kuzatuv kengashi - Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi boshqaruv organi, amaldagi qonun va Bank ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno;

Bank boshqaruvi – Bankning kollegial ijro organi bo'lib, uning kundalik faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi;

Bankning mansabdor shaxslari – Bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zolari;

Bank xodimlari - Bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan (mehnat shartnomasi tuzgan) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

2. Corporate governance system of the bank

2.1. The system of corporate governance in the Bank includes the Bank management bodies and the Bank's internal audit and internal control bodies.

2.2. The management bodies of the Bank are:

- General Meeting of Shareholders;
- Supervisory Board;
- Management Board.

2.3. The system of internal control bodies of the Bank includes:

- Revision Commission;
- Audit Committee;
- Internal Audit Service (Audit Department).

2.4. The Central Bank agrees on the candidacies of persons nominated for members of the Supervisory Board, Management Board and for the positions of key personnel of the Bank, before they take office.

3. General meeting of shareholders of the bank

3.1. General Meeting of Shareholders is the supreme governing body of the Bank.

3.2. The Bank shall hold an annual General Meeting of Shareholders (Annual General Meeting of Shareholders).

3.3. The General Meeting of Shareholders shall be held within the time limits set by the Charter of the Bank, but no later than six months after the end of the fiscal year.

3.4. The General Meeting of Shareholders shall be held by the Chairman of the Supervisory Board of the Bank, and in case of his/her absence for a valid reason – by one of the members of the Supervisory Board.

3.5. The competence of the General Meeting of Shareholders is defined by the Law of the Republic of Uzbekistan “On Joint

2. Bankning korporativ boshqaruv tizimi

2.1. Bankda korporativ boshqaruv tizimi Bank boshqaruv organlari hamda Bank ichki audit va ichki nazorat organlarini o'z ichiga oladi.

2.2. Bank boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi;
- kuzatuv kengashi;
- boshqaruv.

2.3. Bank ichki nazorat organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- taftish komissiyasi;
- auditorlik qo'mitasi;
- ichki audit xizmati (Audit boshqarmasi).

2.4. Markaziy bank kuzatuv kengashining va boshqaruvning a'zolariga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi.

3. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi

3.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

3.2. Bank har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

3.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi Bank ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

3.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Bank kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

3.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasi O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya

Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" and is fixed by the Regulation on the General Meeting of Shareholders of JSC "KDB Bank Uzbekistan" and the Charter of the Bank.

3.6. Supervision over the decision of the General Meeting of Shareholders is carried out by the Supervisory Board, unless otherwise specified in the decision.

3.7. Decisions of the General Meeting of Shareholders are binding on all shareholders, regardless of whether or not they have attended the General Meeting of Shareholders.

3.8. Shareholders of the Bank are responsible for compliance of their decisions with the current legislation.

4. Supervisory board of the bank

4.1. The Supervisory Board is a collegial body of the Bank and provides overall management of the Bank, enforcement of decisions of the General Meeting of Shareholders and determines the strategy and direction of development of the Bank, except matters within the exclusive competency of the General Meeting of Shareholders as per legislation and the Charter of the Bank.

4.2. The competence of the Supervisory Board of the Bank is defined by the Laws of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders Rights" and "On Banks and Banking Activity" and is fixed by the Regulation on the Supervisory Board of the JSC "KDB Bank Uzbekistan" and the Charter of the Bank.

4.3. The Supervisory Board shall consist of five (5) members who shall have expertise in the area of Banking. The majority of the members of the Supervisory Board should

qilish to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilanadi hamda "KDB Bank O'zbekiston" AJ aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom va Bankning Ustavida mustahkamlab qo'yiladi.

3.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori ijrosi ustidan nazorat Bank kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi, agar qarorning o'zida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa.

3.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari barcha aksiyadorlar tomonidan ijro etilishi shart, ularning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etgan yoki etmaganligidan qat'iy nazar.

3.8. Bank aksiyadorlari o'zlari qabul qilgan qarorlarning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi bo'yicha javobgardirlar.

4. Bankning kuzatuv kengashi

4.1. Bank kuzatuv kengashi kollegial boshqaruv organi bo'lib, Bankning faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bajarilishini ta'minlaydi, Bank faoliyatining strategiyasi va rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, qonun hujjatlari va Ustavda faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

4.2. Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Banklar va Bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari bilan belgilanadi hamda "KDB Bank O'zbekiston" AJ kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom hamda Bankning Ustavida mustahkamlab qo'yiladi.

4.3. Bank kuzatuv kengashi Bank faoliyati sohasida malaka va tajribaga ega bo'lgan besh (5) nafar a'zodan tashkil topadi. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi Bankka aloqador

not be persons related to the Bank, except for their membership in the Supervisory Board.

4.4. Members of the Supervisory Board are appointed by the General Meeting of Shareholders in the manner prescribed by legislation and the Charter of the Bank for a period of three years.

4.5. Persons elected to membership of the Supervisory Board of the Bank can be re-elected. Early termination of an elected member of the Supervisory Board shall be approved by a decision of the General Meeting of Shareholders.

4.6. Members of the Management Board of the Bank cannot be elected as a member of the Supervisory Board. It is not allowed to combine the activities of members of the Supervisory Board of the Bank with other activities under an employment contract at the same Bank. Persons who are not shareholders of the Bank may be elected to the Supervisory Board of the Bank in the manner prescribed by law.

4.7. Requirements for candidates to be elected to the Supervisory Board of the Bank shall be determined by the Charter of the Bank or by the decision of the General Meeting of Shareholders.

4.8. Shareholder is entitled to give votes on own shares in favor of one candidate or distribute them among several candidates to the Supervisory Board of the Bank.

4.9. Candidates who gained the highest number of votes shall be considered as elected members of the Supervisory Board.

4.10. Member of the Supervisory Board shall be entitled to:

- personally take part in the meeting of the Supervisory Board, to speak on the agenda discussed at the meeting within the specified time;
- to receive information about the activities

shaxslar bo'lmashligi kerak, bundan ularning kuzatuv kengashidagi a'zoliigi mustasno.

4.4. Bank kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qonun va Bank Ustavida belgilangan tartibda uch yil muddatga saylanadi.

4.5. Bank kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. Kuzatuv kengashining saylangan a'zosining vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

4.6. Bank boshqaruvi a'zolari Bank kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining faoliyatini ularning ushbu Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha faoliyati bilan qo'shib olib borishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank kuzatuv kengashiga qonunda nazarda tutilgan tartibda ushbu Bankning aksiyadorlari hisoblanmagan shaxslar ham saylanishi mumkin.

4.7. Bank kuzatuv kengashi tarkibiga saylash uchun nomzodlarga qo'yiladigan talablar Bank Ustavi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

4.8. Aksiyador o'ziga tegishli aksiyalar bo'yicha ovozlarni to'liq bir nomzodga berishga yoki ularni Bank kuzatuv kengashi a'zoliigiga bir necha nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

4.9. Ovozlarining eng ko'p sonini olgan nomzodlar kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

4.10. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

- kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, yig'ilishda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;
- kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra muayyan davrda

of the Bank;

- other rights stipulated in laws and Bank's Charter.

4.11. Member of the Supervisory Board who has an interest in concluding a transaction by the Bank is obliged to inform the Supervisory Board about his interest prior to conclusion of the transaction. All decisions of the Bank on concluding transaction with interested parties shall be approved by the Supervisory Board. In case of two or more members of the Supervisory Board have interest in transaction, decision on the transaction shall be approved by the General Meeting of Shareholders in established order.

4.12. Members of the Supervisory Board have no right to directly or indirectly receive remuneration to influence on taking certain decisions by the Supervisory Board.

4.13. Members of the Supervisory Board are not entitled to take advantage of the Bank (property or non-property rights, opportunities in the field of economic activity, information on the activities and plans of the Bank) in order to enrich themselves.

4.14. Members of the Supervisory Board are obliged to carry out their duties in good faith and by using best methods taking into consideration interests of the Bank.

4.15. Members of the Supervisory Board of the Bank shall bear responsibility for the Bank in accordance with the legislation and the Charter. In case if they do not participate in voting or voted against the resolution, which causes losses to the Bank, they shall be exempted from responsibility.

4.16. Bank or shareholder (s) who holds not less than one percent of common shares of the Bank have the right to apply to the court against a member of the Supervisory Board

aksiyadorlik jamiyatining faoliyati, uni rivojlantirish rejalari to'g'risida axborot olish;

- qonun hujjatlari va Bank Ustavida belgilangan boshqa huquqlar.

4.11. Kuzatuv kengashining Bank bitim tuzishidan manfaatdor bo'lgan a'zosi o'z manfaatdorligi to'g'risida yozma ravishda Bankni bitim tuzilishi paytiga qadar ma'lum qilishi shart. Bankning manfaatdor shaxslar bilan bitim tuzish to'g'risidagi barcha qarorlari Bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Agar Bank kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi bitim tuzishdan manfaatdor shaxs bo'lsa, bitim bo'yicha qaror Qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.12. Kuzatuv kengashi a'zolari kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatganlik uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emas.

4.13. Kuzatuv kengashi a'zolari Bank imkoniyatlari (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Bankning faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

4.14. Kuzatuv kengashi a'zolari o'zlarining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek Bank manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga majburdirlar.

4.15. Bank kuzatuv kengashi a'zolari Bank oldida qonun hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq javob beradilar. Bunda ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka zarar yetkazuvchi qarorga qarshi ovoz bergan kuzatuv kengashi a'zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

4.16. Bank yoki Bankning joylashtirilgan oddiy aksiyalarining kamida bir foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) Bankka yetkazilgan zararlarni qoplash to'g'risida kuzatuv kengashi

for damages caused to the Bank.

4.17. In carrying out its duties and responsibilities, the Supervisory Board shall rely on internal control and risk management systems and exercise effective control over their activities.

4.18. In carrying out its functions, members of the Supervisory Board are required to:

- have knowledge of the organizational structure of the Bank's corporate governance, the functions of the Supervisory Board, its place in corporate governance, an understanding of the risks inherent in Banking, as well as continuous improvement of knowledge and skills in Banking and finance, risk management and corporate governance;
- actively participate in the activities of the Bank, monitor significant changes in its activities and external conditions, as well as take timely measures to protect the interests of the Bank in the long run;
- take the leading role of the Bank in the formation of corporate culture and values;
- to express his / her reasoned opinion on the issues under consideration, regardless of the views of other members of the Supervisory Board, members of the Management Board and Bank employees;
- show responsibility and diligence with a sense of responsibility and loyalty, conscientiously and prudently perform the assigned tasks and obligations in the interests of the Bank and all its shareholders, do not abuse their authority in the interests of themselves or individuals;
- refrain from actions that may lead to a conflict of interest, as well as to immediately notify the council of the occurrence of a conflict of interest and take measures to eliminate it;
- participate in the meetings of the council

a'zosiga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

4.17. O'zining vazifa va majburiyatlarini bajarishda kuzatuv kengashi ichki nazorat hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga tayanishi va ularning faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi lozim.

4.18. Kuzatuv kengashi a'zolaridan o'z vazifalarini amalga oshirishlari doirasida quyidagilar talab etiladi:

- Bank korporativ boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini, kuzatuv kengashining funksiyalarini bilishi, korporativ boshqaruvdagi o'zining o'rnini anglashi, Bank faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiliklar haqida tasavvurga ega bo'lishi, shuningdek bank-moliya sohasidagi, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruvni tashkil etish borasidagi bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi;
- Bank faoliyatida faol qatnashishi, uning faoliyatidagi va tashqi sharoitlardagi muhim o'zgarishlarni kuzatib borishi, shuningdek uzoq muddatli istiqbolda Bank manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni o'z vaqtida ko'rishi;
- Bankning korporativ madaniyati va qadriyatlarini shakllanishida yetakchi o'rinni tutishi;
- ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan kuzatuv kengashining boshqa a'zolari, boshqaruv a'zolari va Bank xodimlarining qarashlaridan qat'i nazar o'zining asoslangan fikrini bildirishi;
- mas'uliyatni his qilgan holda javobgarlikni va jonkuyarlikni namoyon qilishi va sodiqlik bilan xizmat qilishi, Bank va uning barcha aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni vijdonan va oqilona amalga oshirishi, o'zining yoki ayrim shaxslar manfaatlarini yo'lida o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmasligi;
- manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi harakatlardan qochishi, shuningdek manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi haqida darhol kuzatuv kengashiga xabar berishi va uni bartaraf etish yuzasidan chora ko'rishi;
- kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarida

and its committees without transferring their powers to a third party;

- observe the confidentiality of information constituting trade, Banking and other secrets protected by law, which became known to him during his membership in the Board.

5. Management board

5.1. The Management Board of the Bank is a collegial executive body and manages the current activities of the Bank.

5.2. The number of members of the Board of the Bank shall be determined by the Charter of the Bank.

5.3. Chairman of the Board is appointed by the decision of the Supervisory Board, then approved by the General Meeting of Shareholders. Members of the Management Board are appointed by the Supervisory Board of the Bank.

5.4. Consideration and approval of candidates for the Management Board shall be made by the Supervisory Board by a simple majority vote.

5.5. The General Meeting of Shareholders shall consider the agenda on approval of the Chairman of the Board elected by the Supervisory Board of the Bank.

5.6. The Chairman of the Board shall possess the necessary qualifications, powers and discipline required for the management of the Banking business and the proper oversight of the most important employees of the Bank.

5.7. The competence of the Board of the Bank is defined by the Laws of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders Rights" and "On Banks and Banking Activities" and is fixed by the Regulation on the Management Board of JSC "KDB Bank Uzbekistan" and the Charter of the Bank.

o'z vakolatlarini uchinchi shaxsga o'tkazmagan holda ishtirok etishi;

- kuzatuv kengashiga a'zoligi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tijorat, bank siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etishi.

5. Bank boshqaruvi

5.1. Bank boshqaruvi kollegial ijro organi bo'lib, Bankning joriy faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshiradi.

5.2. Bank boshqaruvi a'zolarining soni Bank Ustavi bilan aniqlanadi.

5.3. Boshqaruv raisi lavozimga Bank kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi, keyinchalik aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Boshqaruv a'zolari Bank kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadilar.

5.4. Boshqaruv a'zoligiga nomzodlar ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishida kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilinadi.

5.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida Bank kuzatuv kengashi tomonidan saylangan Bank boshqaruvi raisini tasdiqlash haqidagi masala ko'rib chiqiladi.

5.6. Boshqaruv raisi Bank ishlarini boshqarish uchun zarur malaka, vakolatga ega va tartibli bo'lishi hamda Bankning eng muhim xodimlari faoliyatini tegishli tarzda nazorat qilishi lozim.

5.7. Bank boshqaruvining vakolat doirasi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari bilan belgilanadi hamda "KDB Bank O'zbekiston" AJ boshqaruvi to'g'risidagi Nizom va Bankning Ustavida mustahkamlab qo'yiladi.

5.8. At the same time, members of the Management Board are trustees of the Supervisory Board of the Bank and the Shareholders of the Bank and must therefore put the interests of the Bank and its Shareholders ahead of their own interests.

5.9. In carrying out its functions, the Management Board is required to:

- implement the tasks set in the Bank's strategic goals, business plan and corporate governance policy;
- establish an effective monitoring system at all levels of the organizational structure for compliance with the policies, procedures and job descriptions approved by the Council and periodically check the effectiveness of this system;
- establish reliable information systems that ensure the proper preparation and timely submission of important information for management decisions;
- ensure timely submission to the Supervisory Board of reports reflecting the current results of financial and other activities, including the business plan and the implementation of the Banking strategy;
- notify the Supervisory Board without delay about worsening or risk of worsening of financial position of the Bank and changes in business plan, strategic objectives, risk management strategy and risk-appetite, violation of risk limits and prudential requirements, errors in internal control, legal or regulatory issues notify the board in a manner;
- ensure an appropriate and transparent organizational structure of the Bank's management, as well as the distribution of powers and responsibilities among the Bank's employees within its competence; control over the activities of Bank employees;

5.8. Shu bilan birga, boshqaruv a'zolari Bank kuzatuv kengashi va Bank aksiyadorlarining ishonchli shaxslari hisoblanadi va shu sabab Bank hamda uning aksiyadorlari manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishlari shart hisoblanadi.

5.9. Boshqaruvdan o'z vazifalarini amalga oshirish doirasida quyidagilar talab etiladi:

- Bankning strategik maqsadlari, biznes-rejasi va korporativ boshqaruvga oid siyosatida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;
- tashkiliy tuzilmaning barcha darajalarida kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatlarga, tartib va lavozim yo'riqnomasiga rioya etishi yuzasidan samarali monitoring tizimini o'rnatish va davriy ravishda ushbu tizim samaradorligini tekshirish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborotning tegishli tarzda tayyorlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlovchi ishonchli axborot tizimlarini o'rnatish;
- biznes-reja ko'rsatkichlari va Bank strategiyasi bajarilishini baholash imkonini beruvchi, o'z ichida moliyaviy va boshqa faoliyatning amaldagi natijalarini aks ettirgan hisobotlarning o'z vaqtida kuzatuv kengashiga taqdim etilishini ta'minlash;
- Bankning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki bunday holat yuz berishi xavfi hamda biznes-reja, strategik maqsadlar, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va risk-appetitdagi o'zgarishlar, tavakkalchilik chegaralari (limiti) va prudensial talablar buzilishi, ichki nazoratdagi xatoliklar, yuridik yoki tartibga solish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kechiktirilmagan tarzda kuzatuv kengashiga xabar berish;
- Bankni boshqarishning tegishli va ochiq tashkiliy tuzilmasini, shuningdek o'z vakolatlari doirasida Bank xodimlari o'rtasida vakolatlar va majburiyatlar taqsimlanishini ta'minlash;
- Bank xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- xodimlarni, jumladan boshqaruv a'zolari, agar

- development of procedures for recruitment and dismissal of employees, including members of the Management Board, unless otherwise provided by the Bank's charter, their replacement (rotation) and promotion, training, retention of qualified personnel, to take measures against them in case of violation of their obligations and rules of ethics;

- fulfill other obligations established by the Bank's charter and legislation.

5.10. Members of the Management Board are obliged to act in good faith and prudently in the interests of the Bank, and they must comply with the following fiduciary obligations:

- to fulfill its obligations within its competence in compliance with the legislation, the Bank's charter and the decisions of the General Meeting of Shareholders of the Bank and the implementation of strategies and policies adopted by the Supervisory Board;

- to act within the limits of their powers for the implementation of their tasks and functions;

- to receive necessary and transparent information in a timely manner, to take appropriate measures and make decisions based on personal skills and experience;

- to comply with the requirements to avoid conflicts of interest;

- to adhere to the principle of equality in relation to the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board;

- to have an impeccable business reputation.

6. Internal control bodies of the bank corporate governance

6.1. Internal control bodies of the Bank Corporate Governance consist of Revision Commission, Audit Committee and Internal

Bank Ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, ularning o'zgartirilishi (rotatsiyasi) va lavozim bo'yicha ko'tarilish, malakasini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish tartibini ishlab chiqish, shuningdek xodimlar o'z majburiyatlari, odob-ahloq qoidalarini buzgan hollarda ularga nisbatan choralar ko'rish;

- Bank Ustavi va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish

5.10. Boshqaruv a'zolari Bank manfaatlari yo'lida vijdonan va oqilona harakat qilishga majbur bo'lib, ular quyidagi fidutsiar majburiyatlarga rioya etishlari lozim:

- qonun hujjatlari, Bank Ustavi hamda Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi hamda kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajarish;

- o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

- zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

- manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

- Bank boshqaruvi organlari, shu jumladan Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashiga nisbatan tenglik tamoyiliga rioya etish;

- benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lish.

6. Bank korporativ boshqaruvining ichki nazorat organlari

6.1. Bank korporativ boshqaruvining ichki nazorat organlariga taftish komissiyasi, auditorlik qo'mitasi va ichki audit xizmati (audit boshqarmasi) kiradi.

Audit service (Audit department).

6.2. The Revision Commission shall be elected by the General Meeting of Shareholders for one year to supervise the financial and economic activities of the Bank and its branches in accordance with the Charter of the Bank.

6.3. Bank **Revision Commission** carries out its activities in accordance with the legislation, the Regulation on the Revision Commission of the JSC "KDB Bank Uzbekistan" and the Charter of the Bank.

6.4. The composition of the Revision Commission may not be less than three (3) members. The Revision Commission is elected for one year. The same person may not be elected to the Revision Commission more than three times in a row.

6.5. Members of the Supervisory Board and Management Board, as well as employees of the Internal Audit Service may not be members of the Bank's Revision Commission at the same time.

6.6. Audit of financial and economic activities of the Bank for one year period or other period shall be carried on the basis of decision of the Supervisory Board at the initiative of the Revision Commission, the General Meeting of Shareholders or at the request of the shareholder(s) holding at least 5% of voting shares of the Bank at any time.

6.7. Revision commission can carry out the following activities:

- checking the financial and economical documents, comparing the property inventory with primary/source accounting documents;
- checking the legality of contracts and transactions concluded on behalf of the Bank, settlements with contractors;
- analysis of the accounting and statistical reports on compliance with existing laws

6.2. Bank va uning filiallarining moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun Bank Ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga taftish komissiyasi saylanadi.

6.3. Bank **taftish komissiyasi** o'z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlari, "KDB Bank O'zbekiston" AJ Taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizom va Bank Ustavi asosida amalga oshiradi.

6.4. Taftish komissiyasining tarkibi uch (3) kishidan kam bilishi mumkin emas. Taftish komissiyasi bir yil muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

6.5. Bank kuzatuv kengashining hamda boshqaruvining a'zolari, shuningdek ichki audit xizmati xodimlari bir vaqtning o'zida Bank taftish komissiyasining a'zolari bo'lishi mumkin emas.

6.6. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bir yillik faoliyat yakunlari bo'yicha, shuningdek istalgan vaqtda taftish komissiyasining tashabbusiga binoan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra, Bank kuzatuv kengashining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

6.7. Bank taftish komissiyasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati hujjatlarini tekshirish, mol-mulkni inventarizatsiya qilish bo'yicha ma'lumotlarni buxgalteriya hisobining dastlabki hujjatlari bilan taqqoslash;
- Bank tomonidan tuzilgan shartnomalar va bitimlar, kontragentlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarning qonuniyligini tekshirish;
- buxgalterlik va statistik hisobotlarning mavjud me'yoriy hujjatlar bilan muvofiqligini tahlil qilish;

and regulations;

- checking on compliance with the rules and regulations on Banking activities;
- analysis of the Bank's financial condition;
- making recommendations to the Supervisory Board on improvement of economic condition of the Bank;
- taking control over the timely and proper execution of the payments to the budget, taxes and other obligatory payments;
- checking the correctness of dividend calculation and its payment;
- checking the correctness of the balance sheet of the Bank, reports to be submitted to the CBU and government authorities;
- checking the correctness of the decisions taken by the Supervisory Board and Management Board in compliance with legislation, the Bank's Charter and the decisions of the General Meeting of Shareholders.

6.8. The **Audit Committee** of the Bank is responsible for organization of control over reliability, efficiency of the corporate governance system in the Bank, as well as objectivity and completeness of financial reporting.

6.9. The Audit Committee is a collegial body which provides control over of the Bank's internal control system and activities of the Internal Audit Service, acting within the powers granted by the Supervisory Board of the Bank and subordinated directly to the Supervisory Board of the Bank.

6.10. Membership of the Audit Committee is approved by the decision of the Supervisory Board of the Bank. The Committee shall consist of only members of the Supervisory Board and at least three members. Members of the Supervisory Board of the Bank, which are members of the Audit Committee, should not be appointed to other committees of the Board responsible

- Bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha o'rnatilgan qoidalar, me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish;

- Bankning moliyaviy holatini tahlil qilish;
- Bank iqtisodiy holatini yaxshilash bo'yicha Bank kuzatuv kengashiga tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- Bank tomonidan budjetga to'lovlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishini tekshirish;
- dividendlarni hisoblash va to'lanishini tekshirish;
- Bank buxgalterlik balansining tayyorlanishi, Markaziy bank va davlat boshqaruv organlariga taqdim etiladigan hisobotlarning to'g'riligini tekshirish;
- Bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi qabul qilgan qarorlarning amaldagi qonunchilik, Bank Ustavi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qabul qilgan qarorlarga mosligini tekshirish.

6.8. Bankning **auditorlik qo'mitasi** Bankda Korporativ boshqaruv tizimining ishonchiligi, samaradorligi hamda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va to'liqligi ustidan nazoratning tashkil etilishi bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

6.9. Auditorlik qo'mitasi Bankda tegishli ichki nazorat tizimini tashkil etish va ichki audit xizmati faoliyatini nazorat qilishni ta'minlovchi kollegial organ bo'lib, Bank kuzatuv kengashi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi va bevosita Bank kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

6.10. Auditorlik qo'mitasi tarkibi Bank kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi. Qo'mita tarkibiga faqatgina Bank kuzatuv kengashi a'zolari kiritilishi, a'zolari soni esa uch kishidan kam bo'lmasligi lozim.

Auditorlik qo'mitasi tarkibiga kiruvchi Bank kuzatuv kengashi a'zolari Bank faoliyatiga javob beradigan boshqa kuzatuv kengashi qo'mitalari tarkibiga tayinlanmasligi lozim.

for Banking activities.

Audit Committee members should have higher education, qualifications and experience relevant to the goals and objectives of the audit service.

At least one member of the Audit Committee must have at least 5 years of experience in auditing, accounting and financial reporting.

Members of the Management Board or other executives of the Bank cannot be included in the Audit Committee.

6.11. Candidates for Audit Committee members are invited by the Chairman of the Supervisory Board of the Bank.

6.12. The main purpose of the Audit Committee is to establish a system of internal control over Banking activities and to ensure its effective functioning.

The main objectives of the Audit Committee are:

- to participate in the process of development and approval of financial reporting and internal audit policy;
- to control over the submission, completeness, reliability of control, financial and other reports;
- to prepare information for the meetings of the Supervisory Board and submit reports to the Supervisory Board on issues within its competence;
- to control over the Bank's interaction with internal and external auditors;
